



УДК 634.13

GENOFOND UCHUN YANGI NOK NAVLARI

Юлдашев Азамжон Махаммаджонович

Андижон вилояти Қишлоқ хўжалиги
бошқармаси бошлиғи ўринбосари

Нажмудинова Дилфуза Шаробиддиновна

АҚХАИ "МСУ" каф. Ўқитувчиси
+998930687978

najmuddinovadilfuza@gmail.com

Annotatsiya: Yangi nok navlarni ishlab chiqishda navning ijobiy miqdor belgilari tez hosilga kirishi, yuqori mahsuldorligi va abiotik omillarga chidamliligi nok genefondi uchun ahamiyatli hisoblanadi. Maqolada nok navlarini qimmatli, agrobiologik xususiyatlariga ega istiqbolli navlarining tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: intensiv, genetik, diversifikatsiya, Starkrimson, Bere bosk, Vilyams, patent.

Аннотация: При выведении новых сортов груш положительными количественными признаками сорта считаются быстрое вступление в урожай, высокая урожайность и устойчивость к абиотическим факторам, значимые для генофонда груши. В статье представлена информация о классификации перспективных сортов груш с ценными, агробиологическими свойствами.



Ключевые слова Интенсивная, генетическая, диверсификация, Старкримсон, Бере Боск, Уильямс, патент.

Abstract: In the development of New pear varieties, positive quantitative traits of the variety are considered significant for its rapid yield, high productivity and resistance to abiotic factors. The article provides information on the classification of pear varieties of promising varieties with valuable, agrobiological properties.

Key words intensive, genetic, diversification, Starkrimson, Bere Bosk, Williams, patent.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-4709-son qarorida Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, tumanlar hududlarini tuproq-iqlim sharoitlariga mos bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ko‘paytirish hamda ilm-fan yangiliklarini keng joriy etish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu sababli, dastlabki bosqichda respublika bo‘yicha 55 ta tuman meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirildi. Intensiv nok bog‘larini tashkil etishda asosan yer maydonini to‘g‘ri tanlash yanada muhimdir. Har bir nav uchun genetik kelib chiqishini



o'rganagan holda eng maqbul sharoitlarni hisobga olgan holda nav tanlash o'simliklarning normal o'sib rivojlanishini va yuqori hosil berishini ta'minlaydi. Shu maqsadda biz (Adabiyotlar asosida) yangi nok navlari haqida qisqacha ma'lumot keltirishini maqsad qildik.

Starkrimson navi. Bog' barpo etish uchun nokning eng mashhur va oddiy navlaridan biri hisoblanadi. Daraxtning o'zi va mevalari o'zining go'zalligi, ajoyib ta'mi va hushbo'yli bilan ajralib turadi.



Starkrimson nokining tarixi 1939 yilda Amerikaning Michigan shtatida boshlangan. Ushbu navni ishlab chiqish uchun olimlar "Sevimli Klappa" navidan foydalanganlar va keyinchalik Starkrimson deb nomlangan oddiy nokning yangi navini olishgan. U ajdodlaridan chiroyli qizil mevalari bilan ajralib turadi. 1956 yilda Stark Brothers ko'chatchilik markazi ushbu navni patentladi. Bu nokning yana bir nomi Qizil Sevimli.

Bu navning boyi baland hisoblanadi, chunki u 4 metrdan 5 metrgacha yetishi mumkin. Daraxtning toji zich va yoyilgan, tor quyuq yashil barglari bilan piramidal shaklga ega, ba'zida to'q qizil rangda bo'lishi mumkin. Barg uzunligi 3 sm dan 10 sm gacha, uchi o'tkir. Gullashi o'rta-kech.

Ushbu daraxtning mevalari quyidagicha tavsiflanadi: mevaning vazni 220 dan 280 grammgacha bo'ladi, shakli yumaloq cho'zilgan, pishgan mevasi qizil rangda, pishmagan mevasi sariq rangda, mevasi suvli oq, juda yumshoq va shakarli, "og'zingizda eriydi" ta'rifi unga juda mos keladi.

Mevaning ta'mi shirin-nordon, xushbo'y hid juda nozik va yoqimli, bunday ta'm xususiyatlari bilan Starkrimson navi bog'bonlar tomonidan juda qadrlanadi. U shirinliklar



va parhez taomlarga, shuningdek konservalar va murabbolarga qo‘shiladi. Bu nokdan kompotlar va likyorlar tayyorlash uchun ham ishlatiladi.

Nok o‘z-o‘zidan changlana olmaydi, shuning uchun nokning boshqa navlari changlatuvchi nav sifatida ishlatiladi. Bere bosk, Vilyams eng yaxshi changlatuvchi nav hisoblanadi.

Payvantag sifatida nokning yovvoyi shakllari hamda Ayva A. BA29 FOX 40 OHM 33 dan foydalanish tavsiya etiladi.

Karmen navi. Karmen navi mevalarining shakli odatiy, muntazam nosimmetrikdir. Terining yuzasi quruq texnik yetuklik bosqichida rang paqdo bo‘lib, butun yuzaga teng taqsimlanadi. Pishgandan so‘ng jigarrang-qizil rangga kiradi. Rangi yorqin, bu nokni boshqa navlarning fonidan sezilarli darajada



ajratib turadi. Tez hosilga kiradi, mevalarining og‘irligi 120-170 gramm, ba’zi namunalar 300 grammga yetishi mumkin. Nokning yovvoyi shakllari yovvoyi bexi, Ayva A, hamda BA 29, FOX 40, OHM 33 payvantaglarga payvand qilish orqali meva berish davrini tezlashtirish uchun universal nav hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar hosildorlik va meva hajmini oshiradi, daraxt hajmini yanada ixchamlashtiradi, intensiv bog’ barpo etishni qulaylashtiradi.

Mevalarni pishib yetish davri iyul oyining oxiri - avgust oyining o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Saqlash muddati bir necha hafta davom etadi hosildorlik yuqori. Meva berish davomiyligi 25 dan 50 yilgacha.



Iyun go‘zali navi. O‘z-o‘zini changlata oladi. Ko‘pchilik bo‘g‘bonlar doimiy yuqori hosil olish uchun changlatuvchi sifatida Vilyams navidan foydalanishadi. Nokning Iyun go‘zali navi Italiya seleksion olimlar tomonida yakka tanlov yo‘li bilan ajratib olingan. Iyun oyining oxirida pishib yetiladi. Mevasi mayda, cho‘zilgan va noksimon. Terisi silliq, sariq-qizil rangga ega. Meva pulpasi sarg‘ish rangga ega, shirin, suvli va juda hushbo‘ydir.



Mevasi kichik, vazni taxminan 50-65 gramm, tekis yuzasi va quyoshli tomoni biroz qizil. Meva mo‘l va erta gullaydi. Bahorgi sovuqlarga sezgir. Shuning uchun ba‘zida gullarini sovuq urishi kuzatiladi. Payvantag sifatida nokning yovvoyi shakllari hamda FOX 40 OHM 33 dan foydalanish tavsiya etiladi. Uning changlatuvchilari Olivie de ser, Santa Mariya navlari hisoblanadi.

Olib borilgan dastlabki kuzatuvlar natijasida nokning yovvoyi shakllari yovvoyi bexi, Ayva A, hamda BA 29, FOX 40, OHM 33 payvantaglarga payvandlangan nokning Starkrimson, Karmen hamda Iyun go‘zali navlari Andijon viloyati shariotlarda yuqori hosil berishi, abiotik omillarga qisman chidamlilik kabi ijobiy xo‘jalik belgilarni namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘riev X.Ch., Yenileyev N.Sh. va b. Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – T, 2014.



2. M.M.Mirzaev, M.K. Sobirov “Bog’dorchilik” T. Mehnat 1987
3. Qosimov A.A, Tashboev Sh.T, Najmudinova D. Sh. “Andijon viloyati xududlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish” bo‘yicha tavsiya (2022 y)
4. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. “O‘zbekiston mevaliligi” T: O‘qituvchi 1981
5. Uslubiy qo‘llanma “Mevalar, rezavor mevali va yong‘oq o‘simliklari navlarini o‘rganish usuli va dasturi” I.V.Michurin nomli BBITI (1999)